

YOZMA MANBALARDA SO'FIY AYOLLAR TIMSOLI

G'ofurjonova Mohlaroy Nodirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17458613>

Annotatsiya. Mumtoz adabiyotda tazkiralar, o'z mohiyatiga ko'ra, tarixiy, adabiy manba sifatida qadrlanadi. Ayniqsa, tasavvufiy tazkiralarda nafaqat erkak, balki so'fiy ayollar hayoti, tarjimai holi va ma'naviy maqomlari ham o'ziga xos tarzda aks etgan. Ushbu maqolada yozma manbalarda orifa ayollar tasviri haqida faqatgina ayol so'fiylar ismi zikr qilingan tazkira muallifi Abu Abdurahmon Sulamiy asariga tayanilgan holda ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: so'fiy ayollar, tazkira, Sulamiy, manoqib.

Annotation. In classical literature, tazkiras are valued as historical and literary sources by their very nature. In particular, Sufi tazkiras uniquely portray not only male but also female mystics (sufi women), reflecting their lives, spiritual experiences, and mystical ranks. This article provides information about the representation of arifa women in written sources, based on the work of Abu Abd al-Rahman al-Sulami – the only tazkira author who mentioned female Sufis by name.

Keywords: Sufi women, tazkira, al-Sulami, manaqib.

Аннотация. В классической литературе тазкиры по своей сути ценятся как исторические и литературные источники. Особенно в суфийских тазкирах своеобразно отражены не только жизнь мужчин, но и жизнь суфийских женщин, их духовный опыт и мистические степени. В данной статье представлена информация об образе ариф женщин в письменных источниках на основе произведения Абу Абдуррахмана Сулами единственного автора тазкиры, упомянувшего имена суфийских женщин.

Ключевые слова: суфийские женщины, тазкира, Сулабий, манакыб.

Mumtoz adabiyotimizda tazkira janri chuqur ildizlarga ega bo'lib, o'zbek adabiyotshunosligining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, tasavvufiy tazkiralar diniy-ma'naviy tafakkur va ruhiy-madaniy hayotning tarixiy manzarasini aks ettiruvchi muhim manbalardandir. Darsliklarda adabiyotshunoslik tarkibiy qismlarga ajratilar ekan, uning avvalgisi adabiyot tarixi ekanligi ko'rsatiladi hamda tazkiralarga quyidagicha ta'rif beriladi: "O'zbek adabiyotshunosligida adabiyot tarixi sohasining dastlabki kurtaklari sifatida tazkiralarni ko'rsatish mumkin"¹.

"O'rta asrlarda nasrdan asosan ilmiy asarlar, manoqib va risolalar yozishda istifoda etilgan bo'lsa-da, ularning tarkibida ham nazmiy parchalardan foydalanish an'ana tusiga kirgan edi. Ushbu turning o'ziga xos adabiy janrlaridan shoir-u nosirlar o'z mahoratlarini namoyish qilish, poetik qarashlarini ifodalashda foydalanar edilar. Xususan, shunday adabiy janrlardan biri tazkira bo'lib, tazkira (ar. – xotira, esga olmoq) asosan, shoir va olimlarning tarjimai holi va ijodiyoti haqida ma'lumot beruvchi tarixiy-adabiy majmua hisoblangan. Unda u yoki bu shaxs haqidagi muhim ma'lumotlar va uning mashhur asarlaridan diqqatga sazovor misollar ilova qilingan.

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 2004. – B. 13.

Tazkiralar asosan tarixiy-irfoniy mavzuda, shoirlarga doir va baʼzan badiiy janrlar boʻyicha tuzilgan. Birinchi guruh tazkiralar atoqli mutasavvif va olimlar shaxsiyati, dunyoqarashi va ijodiy merosini yoritishga bagʻishlangan boʻlib, ularga “Tabaqot us-soʻfiya” (Abdurahmon Sulamiy, X–XI asrlar), “Tabaqot us-soʻfiya” (Abdulloh Ansoriy, X asr), “Tazkirat ul-avliyo” (Fariddin Attor, XII asr), “Nafahot ul-uns” (Abdurahmon Jomiy, XV asr), “Nasoyim ul-muhabbat” (Alisher Navoiy, XV asr) kabi tazkiralarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh tazkiralar nisbatan koʻproq boʻlib, ularga Abu Tohir Xotuniyning (XI) “Manoqib ush-shuaro”, as-Saolibiyning “Yatimat ud-dahr”, Muhammad Avfiyning “Lubob ul-albob”, Davlatshoh Samarqandiyning Navoiyga bagʻishlangan “Tazkirat ush-shuaro” (1486), Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkiralari va boshqalar misol boʻla oladi. Bu turdagi tazkiralarda shoirlar va ularning sheʼrlariga munosabat bildirish asnosida tazkira mualliflari oʻzlarining adabiy qarashlarini ham bayon qilib oʻtganlar”².

Tazkiralarning katta qismi tasavvufiy mazmunda boʻlib, ulardan tariqat yoʻlida maʼlum darajaga yetgan, uning maqomlaridan birma-bir oʻtgan, fanofilloh darajasiga yetgan soʻfiylar zikri oʻrin olgan.

Ammo soʻfiylar haqida soʻz borganda diqqat asosan erkak siymolarga qaratiladi, ayol soʻfiylar esa yo umuman tilga olinmaydi, yo cheklangan doiradagina yodga olinadi. Ibn Arabiy maʼrifat, muhabbat darajalariga yetishish uchun ayollik qandaydir toʻsiq boʻlmasligini, hatto abdollar³ ichida ayollar ham boʻlganini taʼkidlaydi. Ammo shunga qaramasdan, bu holatga tanqidiy qaragan olimlar ham bor.

Masalan, tarixchi, professor Rut Roded 845–1987-yillar orasida arab tilida tasnif etilgan 37 ta tazkiraga asoslanib, ularning asosiy qismida ayollar tarjimai holi juda oz miqdorni tashkil etishi, hayratlanarli jihati, raqamlar borgan sari kamayib, 2% gacha tushganini koʻrsatib oʻtadi. Nufusning 50% ini tashkil etgan ayollarning erkaklar hukmron jamiyatda tazkiralarning yarmida boʻlsa ham ayollarga oid maʼlumot yoʻqligi tabiiy boʻlgani holda raqamlarning bunchalik oz boʻlishi izohga muhtojligini taʼkidlaydi⁴.

Abu Abdurahmon Sulamiy soʻfiy ayollar siymosiga mustaqil yondashgan ilk mualliflardan biri boʻlib, uning “Zikr-u nisvatil mutaʼabidatis soʻfiyyat” asari oʻz jabhasida birinchilardan hisoblanadi. Sulamiy bundan avval soʻfiy erkaklar tarjimai holiga alohida asar yozgan boʻlsa-da, ushbu tazkira undan mustaqil hamda tematik jihatdan mutlaqo noyob sanaladi.

Ular tafsir, hadis, zuhd-u taqvo yoʻlida komillikka yetishgan ayollar sifatida tasvirlanadi.

“Zikr-u nisvatil mutaʼabidatis soʻfiyyat” 84 tarjimai holni oʻz ichiga oladi. Shulardan uchtasi takrorlanib keladi, yaʼni 2, 12, 13 raqamlari ostidagi tarjimai hollarni 22, 39, 40-raqamlarda ham uchramiz. Ular muallif qoʻlyozmasida aynan mana shu ketma-ketlikda boʻlib, bunga sabab qilib naql qilingan soʻzlarning turlichaligi aytiladi. Risolaning Mahmud Tanohiy tomonidan tayyorlangan tanqidiy nashrida qoʻlyozmadagi baʼzi grammatik xatolar toʻgʻrilab ketilgan.

Asarning Rkia Kornell tomonidan tayyorlangan inglizcha tarjimasi uning hozircha mavjud nashrlari orasida eng mukammali deyish mumkin.

² Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – B. 281.

³ Valiylarning belgisi bir darajasiga erishgan guruh; avliyolar, Xudoga yaqinlar – <https://izoh.uz/uz/word/abdol>

⁴ <https://t24.com.tr/k24/yazi/min-nevadiri-l-kutub-23-islami-tezkirelerde-kadinlar-ve-mesahiru-n-nisa,3701>

Kitobda asarning asl arabcha matni va inglizcha tarjimasi bilan birga mufassal izohlar, muqaddima hamda Kornellga tegishli soʻzboshi berilgan. Undan Abu Abdurahmon Sulamiyning hayoti va ijodi, boshqa asarlari va “Zikr-u nisvatil muta’abidatis soʻfiyyat” asarining qoʻlyozma nusxasi haqidagi ma’lumotlar ham oʻrin olgan. Ana shu muqaddima qismidan mavzuga mos qismini toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilib keltiramiz:

“Bunday asarlar (ayollar ismi zikr qilingan tazkiralari) qatoriga quyidagilar kiradi: Bagʻdodlik Abul Faraj ibn al-Javziy (vaf. 597/1201) tomonidan yozilgan “Sifat us-safva” (“Saralarning tabiati”); afgʻon soʻfiysi Jomiy tomonidan yozilgan “Nafahot ul-uns”. U Sulamiyning “Tabaqot us-soʻfiya” asarining hirotlik Abdulloh Ansoriy (vaf. 482/1089) tomonidan qilingan forscha tarjimasiga tayangan; misrlik soʻfiy Abdurrauf Munaviy (vaf. 1031/1622) tomonidan yozilgan “Al-Kavokib ad-Durriyya” (“Yaltirovchi yulduzlar”).

Qizigʻi shundaki, bu mualliflarning hech biri Sulamiyning soʻfiy ayollar haqidagi kitobining asl nomini bilmaganga oʻxshaydi. Hozirgi kunga kelib fanga aniq ma’lumki, Ibn Javziy Sulamiyning asaridagi ayollar haqidagi ba’zi qismlarni soʻzma-soʻz koʻchirgan, lekin uni faqatgina “manbalarimdan biri” deb eslab oʻtadi. Jomiy esa nomga yaqinroq keladi – ammo u Sulamiy asarlari haqida Abdulloh Ansoriyning tarjimalari orqali xabardor boʻlgani sababli faqat taxminiy ta’rif bera oladi: “Sulamiy ibodat qiluvchi va ma’rifatga erishgan ayollar holatlarini zikr etuvchi bir kitob yozgan”, deydi.

Bosma matnlar davridan oldin, ya’ni kitoblar faqat qoʻlda koʻchirilgan zamonlarda, bunday nodir asarlarning ogʻzaki eshitish, esdan chiqarish yoki notoʻgʻri talqin qilinish holatiga uchrashi odatiy hol edi.

Kitobning toʻliq nomi unutilib ketishi, qoʻlyozma boʻlaklari yoʻqolib qolishi, muallifi boshqa kishi bilan adashtirilishi yoki turli asarlar birlashtirib yuborilishi mumkin edi. Biroq ma’lum va mashhur asarning nomi butunlay yoʻqolib ketishi juda kam uchraydigan hodisa. Islomiy ilmlar doirasidagi ushbu “unutish” holati, ehtimol, Sulamiyning boshqa asarlaridan farqli oʻlaroq, bu asar soʻfiy erkaklarni emas, faqat ayollarni tasvirlashga bagʻishlanganida boʻlishi mumkinmi?

Xuddi shu taxmin 1992-yilda Nelli va Larussi Amri tomonidan yozilgan fransuzcha tadqiqotda ham takrorlanadi. Ular shunday yozadilar: “Biz faqatgina Sulamiy tomonidan ayollar uchun bagʻishlangan asarning yoʻqolganidan afsuslanishimiz mumkin... Ehtimol, bu uning “Tabaqot us-soʻfiya” asarining ayollarga oid boʻlimi boʻlgan. Taassufki, bu boʻlim bizgacha faqat Jomiy keltirgan parchalar orqali yetib kelgan”⁵.

Oʻzbek tilida ushbu tazkira haqida ma’lumotlar sanoqli, hatto bir manbada shunday fikrlarga duch keldik: “Er kishilarning zuhd-u taqvosi va tasavvufiy hayotiga doir batafsil ma’lumot beruvchi manbalarda, afsuski, zohidona, obidona va soʻfiyona hayot kechirgan ayollar hayoti haqida juda kam ma’lumot berilgan. Masalan, ilk avliyo tazkiranomasi hisoblangan “Tabaqot us-soʻfiya” nomli asarda bir yuz uch er soʻfiy haqida soʻz yuritiladi, ammo bitta ham ayol soʻfiy haqida gapirilmaydi. Imom Qushayriy, Hujviriyy, Gulobodiy va hatto bir ayol soʻfiy zikrini mustasno qilganimizda, Fariduddin Attor ham “Tabaqot us-soʻfiya” asari muallifi Abu Abdurahmon Sulamiy kabi ayol avliyolar haqida soʻz yuritmaydi.

⁵ Cornell E. Rkia. Early Sufi Women: Dhikr an-Niswa al-Muta’bbidat as-Sufiyyat. – USA: Fons Vitae Edition, 1999. – p. 44.

Tasavvufiy mavzular tadqiq qilingan asarlarni o'rganar ekanmiz, deyarli faqat mutasavvif so'fiy (er kishi)larning so'zlari, hollari, fikr-mulohazalari naql qilinadi. Bundan go'yo ayol kishini zuhd va tasavvuf hayotiga kiritmaslik zuhd va tasavvufning taqozosidir, degan o'y-xayolga borish ham mumkin. Ma'lum va mashhur Robiya Adaviyadan bir majburiyat va zarurat holidagina so'z ochiladi va u haqda ham ko'p so'z yuritilmaydi"⁶.

Ushbu iqtibosdan quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin: iqtibos keltirilgan asar muallifi ilk mutasavvif tazkiranomasi "Tabaqot us-so'fiya"da faqat erkaklar tarjimai holi o'rin olgan degan fikrida haq bo'lishiga qaramay, "Imom Qushayriy, Hujviriyy, Gulobodiy va hatto bir ayol so'fiy zikrini mustasno qilganimizda, Fariduddin Attor ham "Tabaqot us-so'fiya" asari muallifi Abu Abdurahmon Sulamiy kabi ayol so'fiylar haqida so'z yuritilmaydi" deganda uning yuqorida so'z ketgan asaridan bexabar deyishimiz mumkin. Sulamiyning so'fiy ayollar tarjimai holini o'z ichiga olgan tazkisasi o'z vaqtida ko'plab olim, tarixnavislar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan desak, xato bo'lmaydi. Ammo shunga qaramasdan, iqtibos keltirilgan asar muallifining fikrini qaysidir tomondan ratsional, ya'ni voqelikka nisbatan to'g'ri deyishimiz ham mumkin. Chunki Abu Abdurahmon Sulamiyning "Zikr-u nisvatil muta'abidatis so'fiyyat" asari XX asrdagina keng jamoatchilikka tanitildi, tanqidiy nashrlari tayyorlandi. Shu o'rinda qiziq savol paydo bo'ladi, nega endi bir muallifning erkak so'fiylar tarjimai holidan iborat asari barchaga ma'lum-u mashhur, lekin aynan ayollarga xos ushbu tazkira e'tibordan chetda qolib, hatto yo'q sanalib kelmoqda? Ushbu holat faqatgina matnshunoslik, adabiy manbashunoslik yoki tarix fanlari doirasidagi masala emas, bu uning doirasini cheklaydi. Uning boshqa jihatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, iqtibos muallifining fikrini nega voqelikka nisbatan to'g'ri deganimiz oydinlashadi. Asar matnining tanqidiy nashri Mahmud Tanohiy tomonidan ilk bor XX asrning oxirlarida tayyorlanib, ilmiy doiralarga yoyilgan. Tazkira nomi klassik asarlar manbalarida ham ochiq ko'rsatilmagani sababli qo'lyozma dengiz qariidagi chig'anoqdek o'z g'avvosini kutgan.

Umuman olganda, Islom tarixida so'fiy ayollarning ismi erkak so'fiylar manobqlari ichida kelgan, aynan mana shu narsa ham ayol shaxsiyatlarning ismi mustaqil o'laroq oldinga chiqishini biroz qiyinlashtirgan. Akademik adabiyotlarda ham bu mavzu modern davrga qadar yetarlicha tadqiq etilmagan. Bundan kelib chiqadiki, Sulamiy faqat so'fiy erkaklarning emas, balki so'fiy ayollarning ham tarjimai holini yozgan ilk tazkiranavisdir. So'fiy erkaklar tarjimai holi o'rin olgan tazkisasi keng yoyilgani uchun ham keyingi asari uning soyasida uzoq vaqt qolib ketgan.

Taniqli olmon islomshunos olimasi Annemarie Shimmel ayollar haqida: "Islomiy donishmandlikda xotin-qizlarning o'rnini tasvirlab berish ham kishining e'tiborini o'ziga jalb etadi. Xususan, islomiy asarlardagi musulima ayollar obrazlarini sinchiklab o'rganib chiqish orqali ideal ayollarga yaqinroq borish mumkin", degan edi. Sulamiyning ushbu asarini tadqiq qilish orqali biz Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy tazkiralarning asosiy manbalaridan biriga yaqinlashishimiz va tasavvufda ayollarning o'rnini to'g'risida yangi xulosalarga kelishimiz mumkin.

⁶ Umrzoq B. Soliha ayollar. – Toshkent: Movarounnahr, 2007. – B. 3.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cornell E. Rkia. Early Sufi Women: Dhikr an-Niswa al-Muta'bbidat as-Sufiyyat. – USA: Fons Vitae Edition, 1999. – 334 p.
2. <https://t24.com.tr/k24/yazi/min-nevadiri-l-kutub-23-islami-tezkirelerde-kadinlar-ve-mesahiru-n-nisa,3701>
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2004. – 223 b.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 519 B.
5. Umrzoq B. Soliha ayollar. – Toshkent: Movarounnahr, 2007. – 33 b.
6. <https://izoh.uz>